

# Sirtqi bo'lim1



## Sirtqi bo'lim boshlig'i

Erkinov Baxodir Narimanovich

[b.erkinov@tiame.uz](mailto:b.erkinov@tiame.uz)

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Sirtqi bo'limi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi "Oliy ta'lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki (smenali) ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 930-son Qarori asosida tashkil etildi. Institutda sirtqi ta'lim kuyidagi shakllarda: sirtqi shakl hamda ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot berishning sirtqi shaklida olib boriladi. Sirtqi bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, farmoyishlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari, institut rektorining buyruqlari hamda bo'lim Nizomiga amal qiladi.

### Sirtqi bo'limning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Sirtqi ta'lim jarayonini amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilishini ta'minlash;
- Sirtqi ta'lim shaklida iste'molchilarni talablariga javob beradigan ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va xalqaro ta'lim standartlariga mos keladigan ta'lim sifatini ta'minlash;
- Sirtqi ta'lim shakli bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etadigan normativ-metodik ta'minotni takomillashtirish;
- Sirtqi bo'limni institutning boshqa tuzilamalari bilan hamkorlik aloqalarini olib borish va rivojlantirish;
- Fan, ta'lim va bozor munosabatlari talablarini o'rgangan holda sirtqi ta'lim shaklida ta'lim xizmatlari ko'rsatish va o'qitishning ilg'or texnologiyalarini doimiy ravishda takomillashtirish hamda ta'lim jarayoniga ilg'or ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish va boshqalar.

Sirtqi bo'limda jami 1071 nafar talaba tahsil olmoqda. Shundan, sirtqi ta'lim bo'yicha 1- kursda 629 nafar, 2-kursda 399 nafar, 3-kursda 27 nafar, 4-kursda 16 nafar talaba. Sirtqi ta'limda talabalari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahsil olmoqdalar:

1	5450200	Suv xo'jaligi va melioratsiya
2	5430100	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish
3	5450300	Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish

4	5340700	Gidrotexnika qurilishi (suv xo'jaligida)
5	5450400	Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish
6	5311000	Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (suv xo'jaligida)
7	5230900	Buxgalteriya hisobi va audit (suv xo'jaligida)
8	5450600	Irrigatsiya tizimlarida gidroenergetika ob'ektlari
9	5430500	Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti
10	5410700	Yer kadastri va yerdan foydalanish
11	5230200	Menejment (suv xo'jaligida)

Ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot berishni sirtqi shaklida esa talabalar quyidagi ta'lim shakllarida tahsil olmoqda:

1	5450200	Suv xo'jaligi va melioratsiya
2	5430100	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish
3	5340700	Gidrotexnika qurilishi (suv xo'jaligida)
4	5450400	Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish
5	5310200	Elektr energetikasi (suv xo'jaligida)
6	5311000	Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (suv xo'jaligida)
7	5230100	Iqtisodiyot (suv xo'jaligida)
8	5230900	Menejment (suv xo'jaligida)
9	5230900	Buxgalteriya hisobi va audit (suv xo'jaligida)
10	5410700	Yer tuzish va yer kadastri
11	5410700	Yer kadastri va yerdan foydalanish
12	5310500	Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti

Me'yoriy xujjatlar

Dars jadvali

Institut ichki tartib qoidalari

Ishchi o'quv rejalari

O'quv jarayonini tashkil etish